**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.T.04.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**HAMIDOV AZIM PANJI O‘G‘LI**

# MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA BENTONIT TARKIBLI SUPERFOSFAT O‘G‘ITI OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

**UO‘T 661.635.6**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**
**Contents dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Hamidov Azim Panji o‘g’li**
Mahalliy xomashyolar asosida bentonit tarkibli superfosfat o‘g‘iti olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

**Ҳамидов Азим Панжи ўғли**
Разработка технологии получения бентонитсодержащего суперфосфатного удобрения на основе местного сырья.....21

**Khamidov Azim Panji o‘g‘li**
Development of technology for producing bentonite-containing superphosphate fertilizers based on local raw materials.....41

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works…….....……...…….....45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.T.04.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**HAMIDOV AZIM PANJI O‘G’LI**

# MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA BENTONIT TARKIBLI SUPERFOSFAT O‘G‘ITI OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

**02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/T6668. raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Eshqurbonov Furqat Bozorovich**<br>kimyo fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Allaniyazov Davran Orazimbetovich**<br>texnika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim |
| | **Jumanova Miyasar Ortiqovna**<br>texnika fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti.** |

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.04.08raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «14» noyabr soat $14^{00}$ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99855) 105 - 60-47; faks: (+99855) 105-60-48; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (614- raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99855) 105-60-47, faks (+99855) 105-60-48.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «31» oktabr kuni tarqatildi.
(2026 yil «31» oktabr №5 raqamli reestr bayonnomasi).

**A.M.Reymov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor,akademik

**S.A.Kazaxbaev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d. (PhD), dotsent

**Sh.N.Turemuratov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d.,professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo aholisi tez sur'atlar bilan o‘sayotgan bir paytda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, xususan, yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda.

Bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olishni ta'minlaydigan mineral o‘g‘itlarning ishlab chiqarish va qo‘llanishini yanada kengaytirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Hosildorlikni oshirish uchun qishloq xo‘jaligi ekinlarini makro va mikroelementlar bilan to‘liq ta'minlaydigan, ozuqa moddalarning o‘zlashish koeffitsienti yuqori bo‘lgan innovatsion o‘g‘it turlarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda superfosfat qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladigan asosiy fosforli o‘g‘it bo‘lib, fosfor besh oksidining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, uning suvda eriydigan tarkibiy qismlari tuproqda tez harakatchan bo‘lib, yuvilib ketishi va ekinlar tomonidan to‘liq o‘zlashmasligi sababli qator kamchiliklarga ega. Shuning uchun superfosfatning agrokimyoviy samaradorligini oshirish, ozuqaviy moddalarning uzoq muddatli ta'sirini ta'minlash hamda tuproqda namlikni saqlash qobiliyatini oshirish yo‘nalishida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muammolarni hal etishda tabiiy mineral sorbentlardan - xususan, O‘zbekiston hududida katta zahiralarga ega bo‘lgan bentonit gillardan foydalanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bentonitning yuqori sorbsiya qobiliyati, ion almashinuvchanligi, dispersiyasi hamda suyuqlikni ushlab turish xususiyatlari superfosfat tarkibidagi ozuqaviy moddalarning tuproqda barqaror saqlab turishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bentonit qo‘shimchasi superfosfatning donadorligini oshirish hamda mustahkamlash, fizik-kimyoviy va agrokimyoviy xossalarini yaxshilab, uning parchalanish koeffitsientini oshiradi hamda ekinlar tomonidan fosforning o‘zlashish darajasini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahon miqyosida fosforli o‘g‘itlarni samarali qo‘llash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda mahalliy tabiiy mineral qo‘shimchalar asosida ekologik toza, arzon va yuqori samarador o‘g‘it turlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublika miqyosida esa mahalliy fosforitlar va turli hududlardagi (Xovdak) bentonitlari asosida superfosfat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish milliy agrosanoatni rivojlantirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar olish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviy, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va mahsulot sifatini oshirish[1] ga qaratilgan ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, bentonit qo‘shimchali superfosfat o‘g‘it olish texnologiyasini yaratish va uning agrokimyoviy samaradorligini asoslash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сон «2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистонни тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi, 2023 yil 12 oktabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 1 martdagi 91-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mineral o‘g‘itlar xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi, 2022 yil 15 dekabrdagi 753-son “Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyo ishlab chiqarish va ta’lim klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining VII “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ilmiy-texnik adabiyotlarda turli xil fosfat xomashyolarini, jumladan $P_2O_5$ga boy apatitlar va kimyoviy hamda mineralogik tarkiblari bilan bir-biridan farq qiladigan turli navli fosforitlarni mineral kislotalar bilan qayta ishlash va turli mineral qo‘shimchalar kiritish orqali samarador fosforli o‘g‘itlar olish bo‘yicha keng materiallar mavjud va ushbu taniqli olimlar: M.E. Pozin, V.F. Karmyshov, B.A. Dmitrevskiy, S.P. Kochetkov, I.A. Petropavlovskiy (Rossiya), M.T. Moldabekov (Qozog‘iston), K. Gorazda, M. Banach (Polsha), Zhenyi Liu (Xitoy), David J.W. Grant (Buyuk Britaniya), M.N. Nabiev, B.M. Beglov, Sh.S. Namazov, S. To‘xtaev, S.M. Tojiev, A.U. Erkaev, X.Ch. Mirzakulov, I.T. Shamshidinov, A.R. Seytnazarov, A.M. Reymov, T.I. Nurmurodov, N.V. Volynskova, U.K. Alimov (O‘zbekiston) va boshqalar ulkan hissa qo‘shishgan.

Ularning ishlari asosan fosforitlarni turli mineral kislotalar bilan parchalay olish yo‘li bilan EFK, birlamchi va murakkab fosforli o‘g‘itlar, hamda toza fosfor kislotasi tuzlarini olishga qaratilgan. Mahalliy fosforitlarni sulfat kislotalar ishtirokida parchalash va bentonit mineralini qo‘shish orqali tarkibidagi fosfor oksidini suvga ajralishini uzaytirish hamda uning o‘simlikka ta’sir etish muddatini uzaytirish imkonini beradigan bentonit qo‘shimchali fosforli o‘g‘itlar to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam.

Bundan tashqari yana shuni ta’kidlash joizki, sifati past bo‘lgan Mahalliy fosforit xomashyolarini sulfat kislotalari ishtirokida qayta ishlab tarkibidagi fosfogipsni erkin kislotalikni ammonizatsiyalash va bentonit mineralini qo‘shgan holda agrokimyoviy jihatdan samarador fosforli – Agrobentofos o‘g‘itlari olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada mavjud emas.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AK-25-3 sonli “Agrobentofos innovatsion o‘g’itini Nukus va Mo‘ynoq sho‘rlangan tuproqlarida sinovdan o’tkazish” (2025-yil) mavzusidagi akademik

harakatchanlik loyihasi hamda Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №TL-2 raqamli “Mahalliy noan’aviy agrorudalar asosida tuproq unumdorligini, uning meliorativ holatini yaxshilash G’o‘za, Bug’doy, Poliz, Bog’dorchilik majmuyidagi ekinlar hosildorligini oshirish, suv me’yorini tejovchi mineral o’g’it “Agrobentofos” ishlab chiqarish” mavzusidagi tijoratlashtirish (2023-2024 yy.) loyihalari asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mahalliy Guliob fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash hamda bentonit qo‘shimchasini kiritish asosida agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilangan, uzoq muddat ta’sir etuvchi fosforli – “Agrobentofos” innovatsion o‘g‘itini olishning samarador texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mahalliy Guliob fosforit xomashyolarining mineralogik va kimyoviy tarkibini o‘rganish, ularning sulfat kislota bilan parchalash jarayonida fosforning o‘zlashtirilish darajasiga ta’sirini aniqlash;

fosforitlarni sulfat kislota ishtirokida parchalash jarayonining optimal sharoitlarini belgilash, parchalanish tezligi, kislota sarfi va reaksiyaning samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

hosil bo‘lgan kislota bo‘tqasiga bentonit qo‘shimchasini kiritishning ta’sirini o‘rganish, bentonit miqdorining fizik-kimyoviy xossalarga ta’sirini baholash;

bentonitning sorbsiya va ion-almashinish xossalarini o‘rganish, fosforit parchalanishidan hosil bo‘lgan eritmada oziqa elementlarini ushlab turish qobiliyatini aniqlash;

hosil bo‘lgan aralashmaning reologik xossalarini tadqiq qilish, bo‘tqaning oquvchanligi, zichligi va granulatsiyaga yaroqliligini baholash;

“Agrobentofos” o‘g‘itining granulatsiya jarayonini ishlab chiqish, granulometrik tarkibi, mexanik mustahkamligi va saqlanish barqarorligini aniqlash;

olingan agrobentofos o‘g‘itining kimyoviy tarkibini tahlil qilish, undagi fosforning suvda eruvchan, sitratda eruvchan va sekin ta’sir etuvchi shakllarini aniqlash;

“Agrobentofos” o‘g‘itining agrokimyoviy samaradorligini vegetatsion tajribalar asosida tekshirish, turli ekinlarda o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash;

“Agrobentofos” o‘g‘itining uzoq muddatli ta’sirini va tuproqning agroekologik xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish, namlikni saqlash, oziqa moddalarning yuvilib ketish darajasini aniqlash;

Ishlab chiqilgan texnologiyaning texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash, ishlab chiqarish tannarxi, import o‘rnini bosish va eksport imkoniyatlarini baholash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida mahalliy Guliob fosforit xomashyolari, sulfat kislota, Xovdak bentoniti, shuningdek ular asosida olingan aralash kislota bo‘tqalari va donadorlangan “Agrobentofos” innovatsion o‘g‘iti.

**Tadqiqotning predmeti** mahalliy Guliob fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash hamda bentonit qo‘shimchasini kiritish orqali agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilangan, uzoq muddat ta’sir etuvchi fosforli –

“Agrobentofos” innovatsion o‘g‘itini olishning samarador texnologiyasini ishlab chiqish tashkil etgan.

**Tadqiqot usullari**. Dissertatsiya ishida kimyoviy va fizik-kimyoviy (rentgenografik, IQ-spektroskopik, skanerlovchi elektron mikroskopiya) tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Mahalliy fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash jarayonida bentonit qo‘shimchasi kiritilishi natijasida hosil bo‘lgan kislota bo‘tqasining reologik xossalari va parchalanish samaradorligiga ta’siri o‘rganildi hamda optimal texnologik sharoitlar belgilangan;

Fosforit–sulfat kislota–bentonit tizimida kechadigan asosiy kimyoviy va fizik-kimyoviy jarayonlarning o‘zaro ta’sir qonuniyatlari aniqlangan;

Donadorlangan o‘g‘itning mustahkamligi va saqlanish barqarorligini oshiruvchi omillar ilmiy asoslab berilgan;

Xovdak bentonitning sorbsiya va ion-almashinish xususiyatlari asosida fosforning suvda eruvchan va sekin ta’sir etuvchi shakllarining nisbati boshqarilishi aniqlanib, “Agrobentofos” tarkibida uzoq muddatli ta’sirga ega bo‘lgan barqaror fosfor shakllari shakllantirilgan;

“Agrobentofos” innovatsion o‘g‘itining granulometriya tarkibi, mexanik mustahkamligi, kimyoviy tarkibi va agrokimyoviy samaradorligi chuqur tahlil qilinib, tuproqdagi namlikni ushlab turish va oziqa elementlarini yuvilib ketishini kamaytirishdagi roli isbotlandi hamda resurstejamkor va ekologik xavfsiz texnologiya ishlab chiqilib, o‘g‘it ishlab chiqarishning ilmiy asoslari yaratilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilaran iborat:

Mahalliy Guliob fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash va bentonit qo‘shimchasi bilan boyitish asosida donadorligi mustahkamlangan, uzoq muddat ta’sir etuvchi “Agrobentofos” innovatsion o‘g‘iti olishning samarador texnologiyasi ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov sharoitida yuqori samaradorligi isbotlangan;

yangi turdagi “Agrobentofos” o‘g‘iti tuproq unumdorligini oshirish, oziqa elementlarining yuvilib ketishini kamaytirish va o‘simliklarning fosfor elementiga bo‘lgan ehtiyojini uzoq muddat davomida qondirish imkonini beruvchi yuqori agroiqtisodiy samaradorlikka ega amaliy mahsulot sifatida tavsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Kimyoviy, fizik-kimyoviy tahlil natijalari, laboratoriya tajribalari, tajriba-sanoat va agrokimyoviy sinovlari bilan tasdiqlangan. Shuningdek, eksperiment natijalari nufuzli ilmiy nashrlarda chop etish bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy Guliob fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash va bentonit qo‘shimchasi bilan boyitish orqali donadorligi mustahkamlangan, uzoq muddat ta’sir etuvchi – “Agrobentofos” innovatsion fosforli o‘g‘it olishning nazariy va ilmiy asoslari ishlab chiqilgan, bu esa fosforning sekin ta’sir etuvchi va suvda eruvchan shakllari turli nisbatlarda bo‘lgan superfosfat o‘g‘itlarini olishga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan “Agrobentofos” texnologiyasi mamlakat qishloq xo‘jaligida turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos, agrokimyoviy jihatdan yuqori samarali va iqtisodiy jihatdan tejamkor o‘g‘itlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkoniyatini yaratadi, bu esa mahalliy xomashyolar bazasidan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** mahalliy fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash hamda bentonit qo‘shimchasini kiritish asosida agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilangan, donadorligi mustahkamlangan, uzoq muddat ta’sir etuvchi fosforli – “Agrobentofos” innovatsion o‘g‘itini olishning samarador texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mahalliy fosforit xomashyolarini sulfat kislota ishtirokida parchalash hamda bentonit qo‘shimchasini kiritish asosida olingan, agrokimyoviy xususiyatlari yaxshilangan va donadorligi mustahkamlangan “Agrobentofos” innovatsion o‘g‘itini olish texnologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar “Elektrokimyozavod” QQ-AJning “2026-2027 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati”ga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QQ-AJning 2026 yil 24-apreldagi 26-son ma’lumotnomasi). Natijada, uzoq muddat ta’sir etuvchi, donadorligi yuqori va samaradorligi orttirilgan fosforli - “Agrobentofos” innovatsion o‘g‘itlarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Guliob fosforitlarni sulfat kislota ishtirokida qayta ishlash jarayonida bentonit qo‘shimchasi kiritilishi orqali fosforning sekin va barqaror ta’sir etuvchi shakllari bilan birga suvda eruvchan shakllarini o‘z ichiga olgan, agroiqtisodiy jihatdan samarali donador “Agrobentofos” o‘g‘itini olish texnologiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etishga tavsiya qilindi (“Elektrokimyozavod” QQ-AJning 2026 yil 24-apreldagi 26-son ma’lumotnomasi). Natijada, turli tuproqlarda va o‘simliklarning vegetatsiya davrida qo‘llashga mos keladigan, uzoq muddatli ta’sirga ega innovatsion fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ishi chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ishonchliligi asoslangan, dissertatsiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish istiqbollari to‘g‘risida xulosalar qilingan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Mahalliy fosforitlarini kompleks o‘g‘itlarga kompleks qayta ishlash xususiyatlari va texnologiyalarini o‘rganish holati. Bentonit minerallaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida fosfat xomashyosining qishloq xo‘jaligi va kimyo sanoatidagi ahamiyati, jahon va O‘zbekiston miqyosida fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyoj hamda ularning ishlab chiqarish holati yoritilgan. Fosfat konlarining tasnifi, apatit va fosforitlarning kimyoviy-mineralogik tarkibi hamda texnologik xossalari tahlil qilingan.

Shuningdek, Markaziy Qizilqum fosforitlarining geologik tuzilishi, tarkibidagi asosiy komponentlar, past navli va yuqori karbonatli xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan hamda ularni mexanik, termik va kombinatsiyalangan usullar bilan boyitish imkoniyatlari asoslangan. Fosforitlarni oddiy va kompleks fosforli o‘g‘itlarga qayta ishlashning mavjud texnologiyalari, ularning afzallik va kamchiliklari qisqacha bayon etilgan.

Bob yakunida zamonaviy fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish texnologiyalari, O‘zbekistonda ishlab chiqarish quvvatlari va mavjud muammolar tahlil qilinib, mahalliy fosforit xomashyosini samarali qayta ishlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa ekanligi asoslab berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot ob’ektlarining tavsifi va tajribalarni o‘tkazish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob’ektlari sifatida Markaziy Qizilqum fosforitlari asosida olingan boyitilmagan fosfat xomashyosi hamda yuvib kuydirilgan fosforit konsentratlarining kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari, Boyitilgan guliob fosforitlari tavsiflangan. Fosforit namunalarining asosiy komponentlari va ularning miqdoriy tarkibi keltirilib, tajribalar uchun tanlangan xomashyolarning xususiyatlari asoslab berilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari MQ fosforitlari asosida olingan boyitilmagan fosfat xomashyosi (BFX), yuvib kuydirilgan fosforit konsentratlari (YUKFK) va termik boyitilgan guliob fosforitlari (TBGF) (O‘zDSt 2825:2018) bilan olib borildi. Ushbu namunalarining asosiy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Fosforit namunalarining asosiy kimyoviy tarkibi, %**

| № | Xomashyo | Kimyoviy tarkibi, og‘ir. % | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | $P_2O_5$ | CaO | MgO | $Al_2O_3$ | $Fe_2O_3$ | F | $CO_2$ | $SO_3$ | e.q. |
| 1 | BFX №1 | 20,71 | 47,23 | 0,92 | 1,08 | 0,78 | 1,70 | 16,55 | 1,84 | 6,13 |
| 2 | YuKFK №1 | 27,61 | 55,83 | 0,98 | 0,49 | 0,44 | 2,78 | 2,57 | 2,65 | 4,77 |
| 3 | BGF | 11,7 | 47,2 | 0,82 | 2,34 | 1,03 | 2,84 | 17,93 | 1,64 | 7,82 |
| 4 | TBGF | 16,95 | 49,81 | 0,85 | 1,51 | 0,86 | 1,75 | 3,12 | 2,33 | 5,14 |

Fosforit namunalarini sulfat kislota ishtirokida parchalash bo‘yicha laboratoriya tajribalari elektromotor bilan harakatlantiriladigan vintli aralashtirgich bilan jihozlangan quvurli shisha reaktorda olib boriladi. Haroratni bir me’yorda ushlab turish uchun bu reaktor termostatga joylashtiriladi. Oldindan hisoblangan qattiq va suyuq fazalar nisbati (Q:S) 1:3 va kislotalar me’yorini saqlagan holda o‘lchangan sulfat kislota va suv reaktorga solinadi, so‘ngra asta sekinlik bilan belgilangan miqdordagi fosforit namunasi qo‘shib boriladi, bo‘tqa aralashtirib turiladi, yetilgan superfosfat bo‘tqasiga so‘ngra bentonit minerali qo‘shiladi. Fosforitning parchalanish jarayonidagi harorat kislota me’yoriga bog‘liq holda 80-110°C oraliqda o‘zgaradi va 30-60 daqiqa davom etadi. Reaksion massaning harorati 100°Cda ushlab turiladi.

Bobning ikkinchi qismida xomashyo, oraliq mahsulotlar va tayyor o‘g‘itlarning kimyoviy tarkibini aniqlashda qo‘llanilgan zamonaviy kimyoviy, fizik-kimyoviy va instrumental tahlil usullari, jumladan fotokolorimetriya, titrlash, ionometriya, rentgenofazaviy, infraqizil spektroskopiya va elektron mikroskopiya usullari tavsiflangan.


Dissertatsiya ishining **“Mahalliy fosforit xomashyolari asosida agrobentofos o‘g‘itlari olish jarayonining tadqiqoti”** deb nomlangan uchinchi bobida Mahalliy fosforit va bentofos xomashyolarining kimyoviy va mineralogik tarkibini tadqiq qilish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Sulfat kislotaning me’yorlarini hisoblash uchun Guliob fosforitlarining mineralogik tarkibi haqida aniq ma’lumot zarur. Shu munosabat bilan termik boyitilgan fosfat xomashyosining (TBGF) – fosforit unining mineralogik tarkibini aniqlash ishlari olib borildi. Tarkibi (mass. %): TBGF - $P_2O_5$ – 16,95; CaO - 49,81; MgO - 0,85; $Al_2O_3$ – 1,51; $Fe_2O_3$ - 0,86; F - 1,75; $CO_2$ – 3,12; $SO_3$ – 2,33; e.q. – 5,14 bo‘lib, kalsiy moduli ($CaO:P_2O_5$) - 2,93 ni tashkil etadi.

Ma’lumki, fosfat xomashyosida $CaO:P_2O_5$ nisbati qanchalik yuqori bo‘lsa, uni parchalashda kislota reagentining sarfi shunchalik ko‘p bo‘ladi.

TBGF ning mineralogik tarkibini taxminiy aniqlash uchun uning rentgenogrammasi XRD-6100 difraktometrida (Shimadzu, Yaponiya ishlab chiqarishi) olingan. CuKα-nurlanishi (β-filtr, Ni, trubka toki va kuchlanish rejimi 30 mA, 30 kV) va detektorning doimiy aylanish tezligi 4 grad/min, skanerlash burchagi esa 4° dan 80° gacha o‘zgartirildi. Namuna olishda 30 ayl/min tezlikka ega aylanuvchi kamera qo‘llanildi. Mineral fazalarni aniqlashda 2013 International Centre for Diffraction Data ma’lumotlar bazasidan foydalanildi. TBGF ning rentgenogrammasi 1-rasmda keltirilgan.


Rentgenogrammada 3,43; 3,06; 2,82; 2,76; 2,68; 2,61; 2,23; 1,92; 1,83; 1,78; 1,72 Å difraksion chiziqlar ftorkarbonatapatitga tegishli ekanligi ko‘rsatildi.




**1-rasm. Boyitilmagan Guliob fosforit unining rentgenogrammasi.**

Kalsitning mavjudligi 3.84; 3.02; 2.48; 2.27; 2.09; 1.90 Å o‘lchamdagi oraliq masofalar orqali tasdiqlanadi, dolomit esa – 1.78 Å da aniqlangan. 4.26; 3.33 Å dagi chiziqlar erimaydigan qoldiq – kvarsning mavjudligidan dalolat beradi. Kichik miqdorda dala shpatlari, glaukonit, bentonit, xlorit va boshqalar ham mavjud.

Tadqiqot ishida dastlab namuna sifatida olingan fosforit xomashyosining tarkibi SEM usulida tahlil qilindi.




**2-rasm. Fosforit xomashyosining SEM tahlili**

Fosforit xomashyosi tarkibi: O - 41%; Ca - 35,6%; C - 9,1%; P - 7,4%; Si - 2,3%; F - 1,9%; S - 0,8%; Al - 0,8%; Fe - 0,6%; Mg - 0,5% ekanligini ko‘rsatdi.

Elementar panjara parametrlari ($a_0$ = 9.33 Å, $c_0$ = 6.89 Å) bo‘yicha Guliob donador fosforitidagi fosfat minerali frankolit ekanligi aniqlangan. Frankolit (shtaffelit)ning kimyoviy formulasi quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$2Ca_{10}P5{,}2C_{0,8}O_{23,2}F_{1,8}OH \rightarrow 5{,}2P_2O_5 + 18{,}2CaO + 1{,}6CO_2 + 1{,}8CaF_2 + H_2O$$

Yuqorida keltirilgan tarkib va reaksiya asosida Guliob fosforit unining mineralogik tarkibi hisoblandi (1-jadval).

Olingan ma’lumotlar asosida fosforit unining mineral tarkibi quyidagicha tuzildi: $Ca_{10}P_{5,2}C_{0,8}O_{23,2}F_{1,8}OH$ - 47,19%; $CaCO_3$ - 24,75%; $CaMg(CO_3)_2$ - 8.24%; $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ - 6,90%; $SiO_2$ - 0.26%; $Ca_2SiO_4$ - 2,81%; $CaF_2$ - 0,25%; erimaydigan qoldiq - 4,03%, qolganlari – glaukonitlar, xloritlar.

**2-jadval**


**Guliob fosforit unining mineralogik tarkibi**

| Xomashyo minerallarining nomlanishi | Miqdori, % | Xomashyo minerallarining nomlanishi | Miqdori, % |
|---|---|---|---|
| $Ca_{10}P_{5,2}C_{0,8}O_{23,2}F$ 1,8OH | 47,19 | $CaF_2$ | 0,15 |
| $CaCO_3$ | 24,75 | $Al_2O_3$ | 0,95 |
| $CaMg(CO_3)_2$ | 8,24 | $Fe_2O_3$ | 0.73 |
| $CaSO_4$-$2H_2O$ | 6,90 | н.о | 4,03 |
| $SiO_2$ | 0,26 | $K_2O$ + $Na_2O$ (glaukonit, xlorit) | 1,5 |
| $Ca_2SiO_4$ | 2,81 | | |

**3-jadval**

**Bentonit namunasining kimyoviy tarkibi**

| **Ko‘rsatkich** | **Qiymati** |
|---|---|
| Mineralogik tur | Kalsiy-montmorillonit (Ca-smektit) |
| Zichlik, g/sm³ | 2,3–2,5 |
| Namligi, % | 8–12 |
| Shishish indeksi, ml/g | 18–22 |
| Namlik tutish qobiliyati, % | 280–320 |
| Granulometrik tarkib (<0,074 mm), % | ≥85 |
| CaO miqdori, mass% | 27,3 |
| MgO miqdori, mass% | 10,2 |
| Fe miqdori, mass% | 2,33 |
| $Al_2O_3$ miqdori, mass% | 4,71 |
| Kationlar almashinish sig'imi, mg-ekv/100g | 60–80 |
| pH (10% suspenziya) | 8,0–8,5 |





**3-rasm. Xovdak bentonitining IQ-spektri.**

**4-jadval**

**Bentonit IQ-spektrining tavsifi**

| To‘lqin soni ($sm^{-1}$) | Cho‘qqi tavsifi |
|---|---|
| 3620–3650 | –OH guruhining ichki cho‘qqisi (struktura) |
| 3400–3450 | Adsorbsiyalangan suvning –OH cho‘qqisi |
| 1630–1650 | Suv molekulalari bilan bog‘liq deformatsiya |
| 1030–1050 | Si–O–Si cho‘zilish vibratsiyasi |
| 520–540 | Al–O–Si burchak vibratsiyasi |



**4-rasm. Xovdak bentonitining SEM tasviri**

Boyitilgan fosfat xomashyosining angidrit rejimida kalsiy sulfat kristallanishi sharoitida parchalanish jarayonining davomiyligiga ta’siri o’rganilgan.

**5-jadval**

**TBGFning sulfat kislota bilan parchalanish jarayoni davomiyligining kislotali mahsulot kimyoviy tarkibiga ta’siri**

| $H_2SO_4$ me’yori, % | Harorat, °C | Vaqt, daqiqa | $P_2O_5$ miqdori, og‘ir. % | | | $P_2O_{5suv}$./ $P_2O_{5umum.}$ 100, % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | $P_2O_{5umum}$ | $P_2O_{5suv}$ | Erkin kislotalik | |
| 100 | 110 | 30 | 9,42 | 8,48 | 3,5 | 90,02 |
| | | 45 | 9,55 | 8,60 | 3,4 | 90,05 |
| | | 60 | 9,71 | 8,76 | 3,2 | 90,22 |
| | | 75 | 9,87 | 8,96 | 2,9 | 90,78 |
| | | 90 | 9,89 | 9,13 | 2,1 | 92,31 |

Jadvaldan ko‘rinadiki, TBGFning sulfat kislota bilan o‘zaro ta’sir qilish davomiyligi 30 daqiqadan 90 daqiqagacha oshirilganda fosfat xomashyosining parchalanish koeffitsienti ortadi, ya’ni umumiy $P_2O_5$ ga nisbatan suvda eruvchan $P_2O_5$ ning nisbiy miqdori 90,02% dan 92,32% gacha ko‘tariladi. Shu bilan birga,

reaksiya massasidagi umumiy $P_2O_5$ miqdori 9,42% dan 9,90% gacha ortadi**,** erkin kislotalik (sulfat va fosfat kislotalar yig‘indisi) esa aksincha, 3,5% dan 2,1% gacha kamayadi.

Olingan laboratoriya hamda tahliliy ma’lumotlardan quyidagi qat’iy xulosani keltirib chiqarish mumkin: zamonaviy texnologik nuqtayi nazardan fosfat xomashyosining to‘laqonli parchalanish vaqti uchun 30-60 daqiqa muddat to‘liq yetarli hisoblanadi. Ushbu jarayon davomiyligini belgilangan me’yordan oshirish parchalanish koeffitsientining sezilarli darajada ko‘payishiga yoki qo‘shimcha samara berishiga olib kelmaydi. Aksincha, agar dastlabki ishlov berish vaqti 20-30 daqiqadan kam bo‘lsa, keyingi bosqichda reaksiya massasini bir maromda qayta ishlash uchun o‘ta zarur bo‘lgan tiksotrop massa yetarli miqdorda hosil bo‘lmaydi.

Boyitilgan Guliob fosforitini parchalash jarayoniga sulfat kislota sarf me’yorining ko‘rsatadigan ta’siri kislotaning 93% li konsentratsiyasi va 20 daqiqalik barqaror davomiylik sharoitida o‘rganib chiqildi. Ushbu tadqiqot davomida olingan amaliy natijalar 6-jadvalda o‘z aksini topgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kislota me’yori 70% dan 110% gacha oshirilganda reaksion massa harorati 115°C dan 125°C gacha ko‘tariladi. Sulfat kislota me’yori qanchalik yuqori bo‘lsa, reaksion massadagi erkin kislotalik shunchalik ortadi. Masalan, agar $H_2SO_4$ me’yori 70% bo‘lsa, erkin $P_2O_5$ miqdori 3,99% ni tashkil etadi, 100 va 110% me’yorda esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 15,84% va 21,03% gacha oshadi. 100% me’yor bo‘lgan $H_2SO_4$ da $P_2O_{5\ suv.\ eruv.}$ **:** $P_2O_{5\ umum.}$ = 92,10%, bu esa fosfat xomashyosining yetarli darajada parchalangani haqida guvohlik beradi.

**6-jadval**

**Sulfat kislota me’yori va parchalanish jarayoni haroratining kislotali mahsulot kimyoviy tarkibiga ta’siri**

| $H_2SO_4$ me’yori, % | Harorat, °C | $P_2O_5$ miqdori, og‘ir. % | | | $P_2O_5$ miqdori, og‘ir. % |
|---|---|---|---|---|---|
| | | $P_2O_{5umum\%}$ | $P_2O_{5suv\%}$ | Erkin kislotalik | |
| 70 | 115 | 11,52 | 8,54 | 3,99 | 74,13 |
| 80 | 116 | 10,92 | 8,55 | 7,59 | 78,29 |
| 90 | 120 | 10,39 | 9,54 | 11,01 | 91,82 |
| 100 | 122 | 9,87 | 9,09 | 15,84 | 92,10 |
| 105 | 123 | 9,67 | 9,18 | 17,56 | 94,93 |
| 110 | 125 | 9,47 | 9,46 | 21,03 | 99,89 |

Keyinchalik sulfat kislota $H_2SO_4$ konsentratsiyasining reaksion massa tarkibidagi kimyoviy o‘zgarishlarga hamda hosil bo‘layotgan mahsulotning asosiy fizik-kimyoviy xossalariga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur va atroflicha o‘rganib chiqildi. Ushbu tajriba tadqiqotlarini olib borish uchun kislota konsentratsiyasi ko‘rsatkichlari 70% dan 94,5% gacha bo‘lgan diapazonda izchillik bilan o‘zgartirildi. Bunda kislotaning sarf me’yori ortofosfat kislotasi $H_3PO_4$ hosil bo‘lish reaksiyasining stexiometrik hisob-kitoblariga nisbatan tegishlicha 90% va 100% miqdorda belgilab olindi. Tajriba davomida tozalangan boyitilgan termik fosforit (TBGF) namunasining to‘liq parchalanish davomiyligi qat’iy ravishda 20 daqiqa qilib belgilandi. Tadqiqotlar natijasida olingan barcha ko‘rsatkichlar va tajriba ma’lumotlari 7-jadvalda batafsil keltirilgan.

**7-jadval**

**Sulfat kislota konsentratsiyasi va me'yorining parchalanish haroratiga, kimyoviy tarkibiga hamda TBGF kislotali mahsulotining xossalariga ta'siri**

| $H_2SO_4$, % | $H_2SO_4$ me'yori, % | Harorat, °C | $P_2O_5$ miqdori, og'ir. % | | | $P_2O_{5suv.}$/ $P_2O_{5umum.}$ 100, % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | $P_2O_{5umum}$ | $P_2O_{5suv}$ | Erkin kislotalik | |
| 70 | 90 | 80 | 9,37 | 8,62 | 11,04 | 92,0 |
| | 100 | 83 | 8,73 | 8,22 | 15,37 | 94,16 |
| 80 | 90 | 98 | 9,93 | 8,84 | 13,03 | 89,02 |
| | 100 | 100 | 9,07 | 8,53 | 17,77 | 94,04 |
| 90 | 90 | 118 | 10,28 | 9,53 | 12,07 | 92,70 |
| | 100 | 119 | 9,80 | 9,27 | 17,07 | 94,53 |
| 93 | 90 | 120 | 10,39 | 9,54 | 11,01 | 91,82 |
| | 100 | 122 | 9,87 | 9,09 | 15,84 | 92,10 |
| 94,5 | 90 | 136 | 10,61 | 9,93 | 11,06 | 93,59 |
| | 100 | 140 | 10,33 | 9,68 | 15,89 | 93,71 |

Fosforit xomashyosi sulfat kislotada qayta ishlash 60 daqiqa davomida olib borildi. Jarayon tugagach, superfosfat massasiga bentonit qo'shildi. U superfosfat og'irlik nisbati bo'yicha bentonit 5-10% miqdoriy nisbatda olindi. So'ng hosil bo'lgan aralashma 30 daqiqa davomida aralashtirildi va pH = 4-4,5 gacha 25 % li suvli ammiak bilan neytrallandi. Quritish 80°C haroratda amalga oshirildi, granulyatsiya esa yumalatish usuli bilan bajarildi. O'g'it granulalarining kimyoviy tarkibi aniqlanib, ularning mustahkamligi o'lchandi. 2-3 mm o'lchamdagi granulalarning mustahkamligi IPG-1M qurilmasi yordamida aniqlandi. Natijalar 8-jadvalda keltirilgan.

**8-jadval**


**Bentonit qo'shimchali oddiy superfosfat o'g'itining tarkibi**

| № | $H_2SO_4$ me' yori | Bentonit, % | N | $P_2O_{5umum.}$ | $P_2O_{5o'zlash.}$ | $P_2O_{5suv.}$ | CaO | $SO_3$ | Granula mustah. MPa |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 90 | 5 | 0,77 | 11,25 | 9,15 | 6,86 | 33,35 | 39,71 | 3,05 |
| 2 | | 10 | 0,71 | 11,10 | 8,82 | 6,28 | 32,91 | 39,18 | 3,29 |
| 3 | 95 | 5 | 1,25 | 11,06 | 9,23 | 7,34 | 32,75 | 41,08 | 3,25 |
| 4 | | 10 | 1,18 | 10,91 | 8,99 | 6,56 | 32,35 | 40,58 | 3,51 |
| 5 | 100 | 5 | 1,63 | 10,85 | 9,31 | 7,81 | 32,14 | 42,44 | 3,44 |
| 6 | | 10 | 1,56 | 10,72 | 9,16 | 6,84 | 31,79 | 41,97 | 3,72 |
| 7 | 105 | 5 | 1,84 | 10,66 | 9,39 | 8,29 | 31,53 | 43,81 | 3,64 |
| 8 | | 10 | 1,78 | 10,53 | 9,33 | 7,12 | 31,24 | 43,37 | 3,93 |

Sulfat kislotaning 90% me'yorida 5 % bentonit qo'shimchali superfosfat o'g'itining tarkibi, %: $P_2O_{5umum.}$ - 11,25; $P_2O_{5o'zlash.}$ - 9,15; $P_2O_{5suv.}$ - 6,86; $P_2O_{5o'zlash.}/P_2O_{5umum.}$ - 81,33; $P_2O_{5suv.}/P_2O_{5umum.}$ - 60,98; N - 0,77 va granula mustahkamligi esa 3,05 MPa ni tashkil etdi. 10 % bentonit qo'shimchali superfosfat o'g'itining tarkibi, %: $P_2O_{5umum.}$ - 11,10; $P_2O_{5o'zlash.}$ - 8,82; $P_2O_{5suv.}$ - 6,28; $P_2O_{5o'zlash.}/P_2O_{5umum.}$ - 79,46; $P_2O_{5suv.}/P_2O_{5umum.}$ - 56,58; N - 0,71 va granula mustahkamligi esa 3,29 MPa ni tashkil etishi aniqlandi.


Sulfat kislotaning 100% me'yorida 5 % bentonit qo'shimchali superfosfat o'g'itining tarkibi, %: $P_2O_{5umum.}$ - 10,85; $P_2O_{5o'zlash.}$ - 9,31; $P_2O_{5suv.}$ - 7,81; $P_2O_{5o'zlash.}/P_2O_{5umum.}$ - 85,81; $P_2O_{5suv.}/P_2O_{5umum.}$ - 71,98; N - 1,63 va granula mustahkamligi esa 3,44 MPa ni tashkil etdi. 10 % bentonit qo'shimchali superfosfat o'g'itining tarkibi, %: $P_2O_{5umum.}$ - 10,72; $P_2O_{5o'zlash.}$ - 9,16; $P_2O_{5suv.}$ - 6,84; $P_2O_{5o'zlash.}/P_2O_{5umum.}$ - 85,45; $P_2O_{5suv.}/P_2O_{5umum.}$ - 63,81; N - 1,56 va granula mustahkamligi esa 3,72 MPa ni tashkil etishi aniqlandi.

Mahalliy xomashyolar asosida olingan "AGROBENTOFOS" innovatsion o'g'itlarining kimyoviy, tuzli tarkiblari va fizik-kimyoviy hamda tovar xossalarini o'rganildi.




**5-rasm. "Agrobentofos" o'g'itlarining IQ-spektroskopik tahlillari:**
1 – bentonit 0%; 2 - bentonit 5%; 3 - bentonit 15%.

IQ-spektroskopik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki (5-rasm), "Agrobentofos" o'g'iti va tarkibidagi aralashmalarning 1650-1590 $sm^{-1}$ oralig'ida N-H va $NH_2$ guruhlarining tekis tebranish chastotalariga xos tebranishlar kuzatiladi, 1600-1400 $sm^{-1}$ oralig'ida $NH_3^+$, $NH_2^+$, $NH^+$ tebranish chastotalariga mos keladi."Agrobentofos" o'g'itining 876,33-1058,27 $sm^{-1}$ IQ-spektri keng oraliq tebranish chastotalari $PO_4^{2-}$ o'z ichiga oladi va sulfat ionlariga xos bo'lgan tebranish chastotalari 1634,07 $sm^{-1}$ paydo bo'ladi. 2859,76-3223,20 $sm^{-1}$ dagi yutilish chiziqlari kristallanish suviga to'g'ri keladi.




**6-rasm. Olingan “Agrobentofos” o‘g’itining rentgenfaza tahlili (XRD).**

Agrobentofos o‘g‘itidan fosfor angidridining tuproq muhitiga diffuziyalanish kinetikasi an’anaviy oddiy superfosfatga nisbatan tubdan farq qiladi. Oddiy superfosfat tuproq namligi ta’sirida dastlabki 3–5 sutka ichida o‘zining 82,4% faol fosforini eritmaga chiqargan bo‘lsa, Agrobentofos'tarkibidagi $P_2O_5$ ning ajralishi tizimli rejimda namoyon bo‘lib, 20 sutkadan 27 sutkagacha davom etdi.





**7-rasm. Agrobentofos va an’anaviy superfosfat o‘g‘iti tarkibidagi $P_2O_5$ ning suvda erishiga vaqtning ta’siri.**

Mazkur sekinlashuv jarayoni montmorillonit gillarining yuqori sorbsion karkasi va fosfat guruhlari o‘rtasidagi molekulalararo vodorod bog‘lar hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Buning natijasida, tuproq muhitida fosfat anionlarining erkin kationlar $Ca^{2+}$ va $Al^{3+}$ tomonidan birikib erimaydigan shaklga o‘tish darajasi 1,8-2,2 barobargacha kamaydi. Bu esa “Agrobentofos” o‘g‘iti tarkibidagi $P_2O_5$ ning

agrokimyoviy foydali ish koeffitsiyentini (FIK) an'anaviy o'g'itlarga nisbatan sezilarli darajada ortishini va o'simlikning vegetatsiya davrida ozuqani isrofsiz o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Dissertatsiya ishining **"Mahalliy fosforitlar va bentonit asosida Agrobentofos o'g'iti olishning prinsipial texnologik sxemalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish"** deb nomlangan to'rtinchi bobida Agrobentofos innovatsion o'g'iti ishlab chiqarishdagi material balansi, "Agrobentofos" o'g'iti olish jarayonining moddiy oqim hisobi, "Agrobentofos" innovatsion o'g'itini ishlab chiqarish texnologik sxemasi keltirilgan.

Mikroelementli "Agrobentofos" mineral o'g'iti mikro va makroelementlarga boy turli xil xomashyolar asosida ishlab chiqariladi. Agrobentofos mahsulotining xomashyosi bo'lgan bentonit Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida 1091 ming tonna bentonit xomashyosi zahirasi mavjud bo'lgan "Xovdak" karyeridan kukun holatida foydalaniladi




**8-rasm. "Agrobentofos" innovatsion o'gitini ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi.**

1, 6 - bunkerlar; 2 - ta'minlagich; 3 - sig'imli idish; 4, 7 - sarfo'lchagichlar; 5, 8 - shnekli aralashtirgichlar; 9 - yoqilg'i; 10 - barabanli-donadorlovchi quritgich; 11 - klassifikator; 12 - maydalagich; 13 - siklon; 15 - nasos; 14 – skrubber; 16- absorbsion minora

## XULOSA

1.Fosforit xomashyosining 93% li konsentrlangan sulfat kislotada parchalash tadqiqotlari natijasida angidrit rejimida kislotali superfosfat olish imkoniyati aniqlangan. Parchalanish jarayoni haroratining kislota konsentratsiyasi va me'yoriga bog'liqligi belgilandi. Angidrit rejimida parchalanish jarayoni 120°C dan past

bo‘lmagan haroratda borishi uchun konsentratsiyasi 93-94% bo‘lgan sulfat kislotani, me’yori esa kamida 90% bo‘lishi kerak.

2. TBGF larni ikki bosqichli parchalash jarayoniga sulfat kislotaning konsentratsiyasi va me’yorining ta’siri o‘rganildi hamda birinchi bosqichda fosfat xomashyosining 70-80% ini 93% li sulfat kislota bilan 100% me’yor asosida parchalab, monokalsiyfosfat olish zarurligi ko‘rsatildi. Jarayon davomiyligi 15-20 daqiqa bo‘lishi kerakligi aniqlandi.

3.Kislotali superfosfatning erkin kislotaliligini neytrallash jarayoniga fosfat xomashyosi me’yorining ta’siri o‘rganildi va erkin fosfor kislotasiga nisbatan fosforitlarning optimal me’yori 150-200% ekanligi belgilandi.

4.Kislotali superfosfatga bentonit mineralining massaviy miqdor birligida qo‘shilishi 100:5÷10 nisbat birligida amalga oshirildi. Superfosfat donalarining mustahkamligi 1,50 dan 3,05-3,72 MPa gacha ortishi aniqlandi. Bu sharoitda granulalash jarayoni hech qanday murakkabliklarsiz amalga oshadi.

5.Bentonitli superfosfat o‘g‘itlarning tuproqdagi suvni ushlab qolish xossalariga ta’siri o‘rganildi. Natijada TBGF tuproqda to‘liq nam sig‘imni mos ravishda 1,29% ga oshirishi aniqlandi. Bentonitli superfosfat qo‘shilgan tuproqlarda suvning bug‘lanish tezligi nazoratga qaraganda 1,2-8,2% yuqori bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan granulalar erib borishi natijasida bug‘lanish intensivligi nazorat qiymatlariga yaqinlashdi.

6.Bentonit zarralariga superfosfat o‘g‘itining yutilishi va sekin-asta ajralishi (20-27 kun) natijasida $P_2O_5$ning uzoq muddat ta’sir etishi kuzatildi hamda bentonitli superfosfat o‘g‘iti tarkibidagi $P_2O_5$ning foydali ish koeffitsiyenti an’anaviy o‘g‘itlarga nisbatan yuqori bo‘lishini ko‘rsatdi.

7. TBGFdan angidrit sxemasi bo‘yicha granulalangan bentonit qo‘shimchali superfosfat ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va moddiy balansi ishlab chiqildi.

8.Texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar granulalangan bentonit qo‘shimchali superfosfat tarkibidagi $P_2O_5$ tuproq tarkibida tez yuvilib ketmasdan uzoq muddat ta’sir etishi hamda foydali ish koeffitsiyenti ortishi natijasida an’anaviy superfosfat o‘g‘itlarga nisbatan ishlab chiqarishning yuqori iqtisodiy jihatdan samaradorligini ko‘rsatmoqda.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.04.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНЖЕНЕРИИ И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**ҲАМИДОВ АЗИМ ПАНЖИ ЎҒЛИ**

# РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ БЕНТОНИТСОДЕРЖАЩЕГО СУПЕРФОСФАТНОГО УДОБРЕНИЯ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ

**02.00.13 - Технология неорганических веществ и материалов на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2026**

**Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.2.PhD/T6668.**

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете инженерии и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.karsu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

| | |
|---|---|
| **Научный руководитель:** | **Эшкурбанов Фуркат Бозорович**<br>доктор химических наук, профессор |
| **Официальные оппоненты:** | **Алланиязов Давран Оразимбетович**<br>доктор технических наук (DSc),<br>старший научный сотрудник<br>**Жуманова Миясар Ортиковна**<br>доктор технических наук, профессор |
| **Ведущая организация:** | **Навоийский государственный горно-технологический университет** |

Защита диссертации состоится «_14_» ноября 2026 года в «$14^{00}$» часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.04.08 при Каракалпакском государственном университете по адресу: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99855) 105-60-47; факс: (+99855) 105-60-48; e-mail: karsu_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за № 614). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99855) 105-60-47.

Автореферат диссертации разослан «31» октября 2026 года
(реестр протокола рассылки №5 от «31» октября 2026 года)

**А.М. Реймов**
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор., академик

**С.А.Казахбаев**
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.т.н.,( PhD) доцент

**Ш.Н. Туремуратов**
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях стремительного роста мирового населения неуклонно повышается спрос на сельскохозяйственную продукцию, в частности на высококачественные продукты питания.

Это обуславливает необходимость дальнейшего расширения производства и применения минеральных удобрений, обеспечивающих получение высоких и устойчивых урожаев сельскохозяйственных культур. Для повышения урожайности актуальной задачей является создание инновационных видов удобрений с высоким коэффициентом усвоения питательных веществ, полностью обеспечивающих сельскохозяйственные культуры макро- и микроэлементами.

Суперфосфат является основным фосфорным удобрением, широко применяемым в сельском хозяйстве всех развитых стран, и ведутся научные исследования по повышению эффективности пентаоксида фосфора. Однако его водорастворимые компоненты обладают высокой подвижностью в почве, подвержены вымыванию и не полностью усваиваются культурами, что обуславливает ряд недостатков. В связи с этим важное значение приобретает проведение исследований в направлении повышения агрохимической эффективности суперфосфата, обеспечения пролонгированного действия питательных веществ и увеличения влагоудерживающей способности почвы. В решении подобных проблем важное научное и практическое значение имеет использование природных минеральных сорбентов — в частности, бентонитовых глин, обладающих большими запасами на территории Узбекистана. Высокая сорбционная способность, ионообменные свойства, дисперсность и влагоудерживающие характеристики бентонита способствуют стабильному удержанию питательных веществ суперфосфата в почве. В то же время особое внимание уделяется тому, что бентонитовая добавка способствует улучшению гранулируемости и прочности суперфосфата, повышению его физико-химических и агрохимических свойств, оптимизации коэффициента высвобождения питательных веществ и повышению степени усвоения фосфора культурами.

В проводимых во всем мире исследованиях по эффективному применению фосфорных удобрений особое внимание уделяется разработке экологически чистых, недорогих и высокоэффективных видов удобрений на основе местных природных минеральных добавок. В масштабах республики совершенствование технологии производства суперфосфата на основе местных фосфоритов и бентонитов различных месторождений (в частности, Ховдагского) имеет важное значение для развития национального агропромышленного комплекса, получения импортозамещающей продукции и повышения экспортного потенциала. Вместе с тем, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы в качестве приоритетных задач определены расширение производства минеральных удобрений, внедрение современных ресурсосберегающих технологий, эффективное использование

местного сырья и повышение качества продукции[1]. С этой точки зрения научные исследования по созданию технологии получения суперфосфатного удобрения с бентонитовой добавкой и обоснованию его агрохимической эффективности представляют важное значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указе от 12 октября 2023 года № УП-169 «О дополнительных мерах по опережающему развитию промышленности и ее базовых отраслей», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 1 марта 2022 года № 91 «Об утверждении Технического регламента о безопасности минеральных удобрений», Постановлении от 15 декабря 2022 года № 753 «О мерах по созданию Инновационного химического научно-производственного и образовательного кластера для химической промышленности», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления VII развития науки и технологий Республики Узбекистан «Химические технологии и нанотехнологии».

